



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 30-aprel

133-10-0-F/25

Toshkent viloyati hokimiligi

“Besh tashabbus olimpiadasi”ning 2025-yilgi mavsumi doirasida o‘tkaziladigan tanlov va festivallar, sport musobaqalarini viloyat bosqichini yuqori saviyada o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 12, 14 va 23-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-22-aprel kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida va Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida berilgan topshiriqlari bo‘yicha 35-sonli bayoni 143-bandi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan 2022-yil 30-iyunda Yoshlar kuni munosabati bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvning 54-sonli yig‘ilish bayoni 9-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 28-martdagi VII-8-44-10-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq, viloyat hokimi o‘rinbosari O.Sultanbekovning bildirgisini inobatga olib, va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan,

1. Viloyat mahalliy byudjetiga 2025-yilda respublika byudjetidan ajratilgan byudjet ssuda mablag‘lari hisobidan 2025-yil 1-choragi davomida o‘tkazilgan “Besh tashabbus olimpiadasi” 7 ta loyihasining viloyat bosqichida ishtirok etgan 165 nafar yoshlarning taqdirlash marosimini o‘tkazish xarajatlari uchun Toshkent viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasiga 263 300,0 ming (ikki yuz oltmish uch million uch yuz ming) so‘m mablag‘ ajratilsin.

2. Viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Sh.Xashimov) mablag‘ ajratish bo‘yicha “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi”da tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta‘minlasin.

3. Viloyat g'aznachilik boshqarmasi (M.Zaripov) ajratilgan mablag' bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlasin.

4. Toshkent viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasi (N.Xojiyev) ajratilgan mablag'larni belgilangan tartibda maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlasin.

5. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti viloyat boshqarmasi huzuridagi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi (O.Odilov) ajratilgan mablag'dan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o'rnatsin.

6. Mazkur farmoyish ijrosini ta'minlash viloyat hokimining birinchi o'rinbosari O.Tursunov zimmasiga yuklansin.

**Toshkent viloyati
hokimi**



Z.Mirzayev